

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYXON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Urganch davlat universiteti v.v.b.
S.U.Xodjaniyazov

2025 -yil

25.05


**AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA
ASOSLARI FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 500 000 –Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi: 530 000 - Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60530200 - Geografiya

Urganch - 2025

Mazkur o'quv dastur Urganch davlat universiteti kengashining 2025-yil "05" 05 dagi 9 -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

 S.U. Xodjanizayov


Akademik faoliyat va registrator

departamenti boshlig'i:

 G.R. Matlatipov


Mazkur o'quv dastur "Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari" fakulteti Kengashining 2025-yil "30" aprel dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (9 -sonli bayonnomasi).

Fakultet dekani:

 J.Sh. Ruzimov

Mazkur o'quv dastur "Geografiya" kafedrasining 2025-yil "25" aprel dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (17 -sonli bayonnomasi).

Geografiya kafedrasini mudiri:

 A.G. Abdullayev

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar	
AG3508	2026-2027	5	6	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek/Rus		4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Aholi geografiyasi va demografiya asoslari	60	120	180

I. Fanning mazmuni

Ushbu dastur aholi geografiyasi fanining geografiya va aholishunoslik fanlari tizimidagi tutgan o'rni, aholi soni, uning dinamikasi, aholining tarkibi, joylashishi, aholi manzilgohlari va ularning geografiyasi, aholi migratsiyasi va urbanizatsiya kabi masalalarni qamrab oladi. Malakali feofraf mutaxassislar tayyorlashda muhim o'rin egallaydi.

Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fani iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning alohida tarmog'i bo'lib, oliy o'quv yurtlarining geografiya yo'nalishi talabalari uchun o'qitiladi. Fan dunyo aholisi dinamikasi, aholi tabiiy harakati: tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish., aholi tabiiy harakatining dunyo mintaqalari bo'icha farqlari, tug'ilish va uning geografiyasi, aholining tarkibi, mehnat resurslari shakllanishi va ulardan foydalanishning hududiy xususiyatlari, aholi migratsiyasi va uning turlari, urbanizatsiya, aholi manzilgohlari va ularning turlari bo'yicha asosiy bilimlar berishga qaratilgan.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga dunyo bo'ylab va alohida mamalatlarda aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlar (dinamikasi), aholi joylashishi va xududiy harakati to'g'risida bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga aholi joylashishi qonuniyatlari haqida bilimlar berish, uning soni va tarkibini tahlil qilish va buning asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat.

Shu bilan bir qatorda kursda O'zbekiston aholi geografiyasining asosiy xususiyatlari, mamlakat aholisi soni va dinamikasi, tarkibi, aholining takror barpo bo'lishi va uning mintaqaviy jihatlari, tug'ilish, o'lim va aholining tabiiy harakati, O'zbekiston aholisining demografik tarkibi, aholining bandligi va mehnat resurslaridan foydalanish muammolari, aholi migratsiyasi, aholining joylanishi, mamlakatning aholi manzilgohlarini o'rganishga ham asosiy e'tibor qaratiladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, tadqiqot usullari. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining shakllanishi va rivojlanishi. Uning fanlar tizimida tutgan o'rni, boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalari. Fanning ob'ekti, predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari. Tadqiq etish usullari. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining asosiy bo'limlari. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining xorijda va O'zbekistonda rivojlanishi.

2-mavzu. Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari. Aholi ro'yxati.

Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari haqida umumiy tavsiflar. Birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar. Tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish jarayonlarining joriy hisobi. Aholini hisobga olish, turlari, aholi ro'yxati va ro'yxatga olishning usullari. Rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholini ro'yxatga olish.

3-mavzu. Aholisi soni va dinamikasi. Aholi soni dinamikasi (tadrijiy o'zgarishlari). Aholining kategoriyalari: doimiy, vaqtincha, mavjud aholi. Dunyo mamlakatlari aholi soni, ularni klassifikatsiyalash. Aholi soni ko'payishidagi tengsizlikning asosiy sabablari va oqibatlari. Aholi ko'payishining tarixiy bosqichlari.

4-mavzu. Aholi zichligi. Aholi zichligi haqida tushuncha, uning mohiyati, hisoblash yo'llari. Aholi zichligi va hududning o'zlashtirilishi darajasi. Aholi zichligi bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolar. Hududning demografik, mutloq va nisbiy sig'imlari haqida tushuncha.

5-mavzu. Aholi takror barpo bo'lishi geografiyasi. Aholi tabiiy harakati: tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish. Aholi tabiiy harakatining hududiy xususiyatlari. Aholi takror barpo bo'lishi, aholi takror barpo bo'lishining asosiy jarayonlari: tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va migratsiya. Aholi takror barpo bo'lish turlari. Aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar. Kengaygan, oddiy va qisqargan aholi takror barpo bo'lishi va uning geografik tarqalishi.

6-mavzu. Jahon mamlakatlarida aholi takror barpo bo'lishi xususiyatlari. Jahon mamlakatlarida aholi takror barpo bo'lishining mintaqaviy xususiyatlari. Rivojlangan mamlakatlarda aholi takror barpo bo'lishi. Osiyo mamlakatlarida demografik jarayonlar. Demografik o'tish va uning bosqichlari, demografik portlash, demografik inqiroz, demografik koeffitsientlar.

7-mavzu. Aholining yosh-jinsiy tarkibi.

Aholining yosh va jinsiy tarkiblari xususiyatlari. Aholi jins tarkibi shakllanishidagi omillar. Dunyo mamlakatlari aholisi jins tarkibidagi geografik farqlar. Aholining yosh tarkibi, uning shakllanish omillari va yosh guruhlari

bo'yicha taqsimlanishi. Aholi yosh guruhlari turlari. Aholi yosh guruhlari va aholi takror barpo bo'lish o'rtasidagi bog'liqlik masalasi. Aholi yosh-jins tarkibining demografik va hududiy jihatlari.

8-mavzu. Aholi salomatligi. "Salomatlik" tushunchasining mohiyati va tarkibi. Aholi salomatligini baholash. Mehnatga qobiliyatini vaqtincha yo'qotishga olib keluvchi kasalliklar va nogironlik ma'lumotlari. Insonning o'zini saqlash mayli. O'zbekistonda aholi kasallanishining hududiy farqlari.

9-mavzu. Aholining irqiy tarkibi. «Irq» haqida tushuncha. Insoniyatning katta yevropoid, mongoloid, negroid, avstroloid va ko'p sonli mayda irqlardan tarkib topganligi. Sof va aralash irq, ularning antropologik farqlari. Irqlar kelib chiqishining biologik asoslari. Irqlararo munosabatlar. Irqiy va etnik birliklar nisbati. Dunyo mintaqalari bo'yicha aholining irqiy tuzilishi.

10-mavzu. Aholining etnik tarkibi. «Etnos», «elat», «millat», «xalq» tushunchalari. Xalqaro milliy munosabatlar. Yirik va kichik tillar va millatlar. Ko'p millatli, ikki millatli va bir millatli mamlakatlar, milliy-etnik jarayonlar: konsolidatsiya, assimilyasiya, integratsiya, ularning jahon siyosiy-ijtimoiy hayotida tutgan o'rni. Dunyo mamlakatlari aholisining etnik tarkibi. Til oilalari. Til oilalarining geografik tarqalishi. Xalqlarning tili bo'yicha guruhlanishi.

11-mavzu. Dinlar geografiyasi. Aholining diniy tarkibi. Dunyo dinlari shakllanishi. Arxaik, milliy va dunyoviy dinlar. Xristian: katolik, pravoslav, protestan, islom: shiya, sunniylar, budda dinlari geografiyasi va ularning jahon siyosiy-ijtimoiy munosabatlaridagi o'rni. Xinyanlar, maxayanlar va ularning geografiyasi. Dinlarning aholi demografik rivojlanishiga ta'siri. Yirik diniy ziyoratgohlar va ularning xalqaro aholi migratsiyasidagi roli. Jahon mamlakatlari bo'ylab dunyo dinlarining tarqalishi. Dunyodagi boshqa dinlar.

12-mavzu. Aholining ijtimoiy tarkibi. Aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy funksiyasi. Ijtimoiy-iqtisodiy muhit. Aholining tabaqalanishi, uning dunyo mintaqalari miqyosida turlanishi. Aholi ijtimoiy tarkibi bilan ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik.

13-mavzu. Mehnat resurslari. Aholi bandligi va uning geografik xususiyatlari. Mehnat resurslari, "Iqtisodiy faol aholi", "Iqtisodiy nafaol aholi" tushunchalari va ularning tarkibi. Mehnat resurslari balansi. Mehnat resurslari shakllanishi va ulardan foydalanishning hududiy xususiyatlari.

14-mavzu. Aholi bandligi. Aholi bandligi muammolari. Mehnat bozori, uning hozirgi holati va rivojlanish xususiyatlari. O'zbekistonda aholi bandligining hududiy farqlari. Mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish holatlari.

15-mavzu. Aholining mexanik harakati. Migratsiya geografiyasi. Migratsiya haqida tushuncha. Migratsiya turlari: ichki, tashqi, ixtiyoriy, majburiy

doimiy, vaqtinchalik va mayatniksimon (mökkisimon), ularning shakllari va xususiyatlari. Migratsiyani hisobga olish. Migratsiyaning alohida hududlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. Migratsiya omillari: siyosiy, milliy-etnik, diniy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqalar. Xalqaro migratsion harakatlar tarixi, ularning alohida materiklar, o'lkalar yoki hududlarning iqtisodiy o'zlashtirishdagi roli. Tashqi migratsiya. Emigratsiya, immigratsiya, reemigratsiya, deportatsiya tushunchalari va ularning xususiyatlari. Dunyo aholisi mexanik harakati muammolari va siyosat. Immigratsiya siyosati.

16-mavzu. O'zbekistonda aholi migratsiyasi. O'zbekistonda migratsiyaning hududiy tafovutlari. Ichki migratsiya. Shahar va qishloq yo'nalishida migratsiya. Mayatniksimon migratsiya. Respublikada migratsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar. Tashqi migratsiya. Mehnat migratsiyasi.

17-mavzu. Aholi manzilgohlari. Manzilgohlarning geografik shakllari, turlari. Aholining joylanishi va unga ta'sir etuvchi geografik omillar. Aholining joylashishi va manzilgohlari haqida umumiy tushuncha. Aholi joylashishining asosiy shakllari. Aholining joylashishi va xo'jalikni hududiy tashkil etish. Aholi joylanishining shakllari, aholi manzilgohlari, turlari, o'lchami, vazifalari. Aholi punktlari geografiyasi, uning geografik shakllari, turlari. Aholining joylanishi va punktlari haqida umumiy tushuncha. Aholi joylanishining asosiy shakllari.

18-mavzu. O'zbekistonda qishloq aholi manzilgohlari. O'zbekistonda qishloqlarning shakllanishi va rivojlanishi omillari. Qishloqlar zichligi. Qishloq aholi punktlarining genetik tiplari. Funktsional tiplari. O'zbekiston mintaqalari bo'yicha qishloqlarning tarqalishi. Qishloqlarning aholiyiligi.

19-mavzu. Shahar aholi manzilgohlari. Urbanizatsiya jarayoni. Shaharlar, shaharchalar va ular tizimi haqida tushuncha. Shahar maqomini berish mezonlari. Jahon urbanizatsiyasi. Urbanizatsiya tushunchasi. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish omillari va turlari. Urbanizatsiyaning «ichki» (vertikal) va «tashqi» (gorizontal) rivojlanishi. Suburbanizatsiya, rurbanizatsiya jarayonlari. Urbanizatsiyalashgan mintaqalar, megapolislar, aglomeratsiyalar, o'ykumenopolislar.

20-mavzu. O'zbekistonda shahar aholi manzilgohlari. Shahar joylarning shakllanishi va rivojlanishi. Shaharlarning katta kichikligi. Shaharlarning funktsional tiplari. Monoshaharlar. Resurs shaharlar. O'zbekiston shaharlarining hududiy farqlanishi. Viloyat markazlari. Tumanlar ma'muriy markazlari.

21-mavzu. O'zbekistonda aholi geografiyasi va demografiya asoslari. O'zbekiston aholi geografiyasi va demografiya asoslarining asosiy xususiyatlari. O'zbekiston aholisi soni dinamikasi, tarkibi, aholi takror barpo bo'lishi va uning mintaqaviy jihatlari. Tug'ilish, o'lim va aholining tabiiy harakati. Respublika aholisining demografik tarkibi. Mamlakatda aholining bandligi va mehnat

resurslari muammosi. O'zbekiston aholisi migratsiyasi. Aholining joylanishi geografiyasi. Aholi punktlari, respublika qishloqlari, shaharlari geografiyasi.

22-mavzu. Demografik siyosat. Demografik siyosatning mazmun va mohiyati. Demografik siyosat olib borishning zaruriyati. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda demografik siyosat. Tug'ilishni cheklash, nazorat qilish. Xitoy va Hindistonda demografik siyosat.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanida qo'llaniladigan termin va tushunchalar izohi.
2. Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari. Jahon mamlakatlarida aholi ro'yxati tarixini o'rganish.
3. Dunyo mintaqalari aholi soni va uning dinamikasi jadvalini tuzish.
4. O'zbekistonda aholi zichligi. Unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish. O'zbekiston aholi zichligi kartasini chizish.
5. Aholi takror barpo bo'lishining geografik qonuniyatlarini o'rganish.
6. O'zbekiston mintaqalarida aholi takror barpo bo'lishining hududiy farqlarini statistik tahlili.
7. Aholining yosh-jins piramidasi chizish.
8. O'zbekiston aholi salomatligi. Nozogeografik vaziyat.
9. Dunyo aholisi irqalar kartasini tahlil qilish.
10. Aholining etnik tarkibi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish, aholining etnik kartasini tahlil qilish.
11. Dunyo aholisining diniy tarkibi, dunyo dinlari kartasini tahlil qilish.
12. Aholining ijtimoiy tarkibi. Uning tuzilishini tahlil qilish.
13. Aholi bandligi va mehnat resurslari. O'zbekiston mehnat resurslarini statistik tahlili.
14. Jahon mamlakatlarida aholi migratsiyasining statistik tahlili.
15. O'zbekistonda aholi migratsiyasining mintaqaviy farqlanishini tahlil qilish.
16. Aholi manzilgohlari, ularning shakllari, rivojlanish omillarini iqtisodiy geografik o'rganish.
17. O'zbekiston shahar aholi manzilgohlarini statistik o'rganish.
18. Viloyat markazlari, qishloq ma'muriy tumanlari markazlari.
19. Monoshaharlar. Resurs shaharlar. Ilm-fan va madaniyat shaharlari.
20. O'zbekiston qishloq aholi punktlari, ularni joylashuvini o'rganish.
21. O'zbekistonda aholi turmush darajasi va turmush sifati.
22. Demografik prognoz.

23. Demografik siyosat.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Aholining iqtisodiy, ma'lumotlilik va ijtimoiy tarkibi.
2. "Demografik o'tish bosqichlari" va ushbu jarayonni dunyo hududlari bo'ylab ahamiyati.
3. O'zbekiston aholisi va joylanishi.
4. Aholining oilaviy tarkibi.
5. Demografik o'tish konsepsiyasi.
6. Rivojlanayotgan mamlakatlar demografik siyosati.
7. Aholi mexanik harakatini miqdoriy va sifatli baholash.
8. Demografik tadqiqotlar rivojlanishi tarixi.
9. Aholi geografiasining fan sifatida shakllanishi.
10. MDH davlatlari aholisi demografik vaziyati.
11. Geodemografiya va demogeografiya.
12. XX asrda aholi geografiasini.
13. Nikoh va ajralish.
14. Geodemografik vaziyatning mintaqaviy tiplari.
15. Dunyo mamlakatlari demografik siyosatlarini.
16. Dunyo aholisi migratsiyasi.
17. Urbanizatsiya jarayoni. Dunyo shaharlari.
18. O'zbekiston aholisi, demografik jarayonlari.
19. Dunyo aholisi joylanishi.
20. G'arbiy yevropa davlatlari aholisi demografik vaziyati.
21. Janubiy Amerika mamlakatlari aholi geografiasini.
22. Janubiy Afrika mamlakatlari aholi geografiasini.
23. Shimoliy Amerika aholisi joylanishi.
24. Afrika mamlakatlari aholisi soni dinamikasi va joylanishi.
25. Yaponiya aholisining demografik rivojlanishi.
26. Xitoy davlatida oilani rejalashtirish dasturlari.
27. Demografik siyosatning mazmuni va uni amalga oshirish uslublari.
28. O'zbekistonda oilani rejalashtirish.

29. O'zbekistonda aholi o'limining hududiy farqlanishi.

30. Aholi kasallanishi. Nozogeografik vaziyat.

31. Demografik prognozlash: mazmun va mohiyati.

32. O'zbekistonda aholi salomatligi va uning hududiy farqlanishi.

33. Demografik jarayonlarni joriy statistik qayd etish tartibi.

34. Tanlab o'tkaziladigan tadqiqotlar va aholi registrlari.

35. Aholi sifati va uning xususiyatlari.

36. Aholining ijtimoiy va iqtisodiy tarkibi.

37. Demogeografik rayonlashtirish: mazmun va mohiyati.

38. Etnogeografik rayonlashtirish.

39. O'zbekiston aholisi milliy tarkibi.

40. Aholining nikoh va oilaviy tarkibi.

41. Aholining joylashishi.

42. Aholining reproduktiv mayli va uning turlari.

43. Aholining umr ko'rish davomiyligi.

44. Mehnat migratsiyasi.

45. O'zbekiston aholisi joylashuvi: hududiy farqlanish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Aholi geografiasini va demografiya asoslari fanining tadqiqot ob'ekti va predmeti; iqtisodiy geografik fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqalari; asosiy g'oya, qonuniyatlari va nazariyalari to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- hududlarda aholi va aholi manzilgohlari soni va dinamikasi, tuzilishi, tarkibi, aholining yosh-jins va milliy, etnik, irqiy va diniy tarkibini tahlil qilish; aholi kartalarini loyihalash va tuzish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.
- aholi soni va joylashuviga ta'sir qiluvchi omillarni; demografik koeffitsientlarni; aholi takror barpo bo'lishi va unga ta'sir etuvchi omillarni, aholini geografik o'rganishda zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari hamda geografik axborot tizimlarini bilishi va ulardan foydalana olishi *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar:

1. Bo'riyeva M.R. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent.: "Innovatsiya-ziyo", 2022.- 138 b.
2. Tojiyeva Z. Aholi geografiyasi. Darslik. - Toshkent.: "Nodirabegim", 2019.- 252 b.
3. Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2018. – 279 с.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
2. Атаджанов И.Ш. Аҳоли географияси демография асослари билан фанидан амалий машғулотлар. Услубий қўлланма. Хива, 2020.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие. – М.: 1999. – 124 с.
5. Ўзбекистонда 1987, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, ва 1989 йилларда ўтказилган аҳоли рўйхати маълумотлари.
6. Перцик Е. Н. География городов (геоурбанистика): Учебное пособие для геогр. спец. вузов. – Высш. шк., 1991. – 319 с.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). –Т.: 2009.

9. Tojiyeva Z, Dusmonov F. Demografiya. O'quv qo'llanma.-Toshkent.: "Nodirabegim", 2019,- 300 b.

Internet saytlar:

1. <http://www.demoscope.ru>.
2. <http://www.dmo.econ.msu.ru>.
3. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
4. <http://www.demography.narod.ru>
5. <http://stat.uz>.
6. <http://ziyo.net>.
7. uzgeo.uz.

Mazkur o'quv dastur M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining geografiya ta'lim yo'nalishi uchun Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanidan tuzilgan o'quv dasturi <https://www.geogr.msu.ru/structure/departments/ecgr/> asosida takomillashtirilib, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Tuzuvchi va fan/modul uchun mas'ul:

I.SH.Atadjanov - UrDU "Geografiya" kafedrası dotsenti, g.f.n.

Taqrizchilar:

A.G.Abdullayev - UrDU "Geografiya" kafedrası mudiri, PhD

D.R.Ro'zmetov – Xorazm Ma'mun Akademiyasi ilmiy kotibi, g.f.n. katta ilmiy hodim